

## VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN JAZODAN OZOD QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

To‘lqinova Visola Ulug‘bek qizi  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi  
E-mail: visolatolqinova05@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20489170>

Voyaga yetmagan shaxslarning jinoyat-huquqiy mas‘uliyati masalasi jinoyat huquqi hamda kriminologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu toifadagi shaxslarga nisbatan jazodan ozod qilish institutini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, voyaga yetmaganlar jismoniy, ruhiy va intellektual rivojlanish xususiyatlariga ega bo‘lgan shaxslar sifatida ularga nisbatan qo‘llaniladigan jinoyat-huquqiy choralar ularning kelajagi va jamiyatga qayta moslashuvini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 69-moddasida belgilangan jazoni ijro etish muddatlari asosiy va qo‘shimcha jazolar bilan bevosita bog‘liq holda tartibga solinadi. Amaldagi qonunchilikda mazkur muddatlar voyaga yetgan hamda voyaga yetmagan shaxslarga bir xil tarzda tatbiq etiladigan universal muddat shakli sifatida mustahkamlangan. Biroq, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinoiy jazodan ozod qilishning shakllari qonunchilikda alohida farqlangan bo‘lib, quyidagi turlarni o‘z ichiga oladi:

- majburlov choralari qo‘llagan holda jazodan ozod qilish;
- jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish;
- jazoni engilrog‘i bilan almashtirish.

Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 70-modda) instituti doirasida sud shaxsning namunali xulq-atvorini, mehnatga yoki o‘qishga vijdonan munosabatini, shuningdek jinoyat sodir etilgan sharoitning o‘zgarganligini inobatga olgan holda qaror qabul qiladi. Jinoyat kodeksining 70-moddasiga asosan 2022-yilda 730 ta jinoyat ishi bo‘yicha 1 287 nafar shaxs, 2023-yilning birinchi yarmida esa 364 ta jinoyat ishi bo‘yicha 686 nafar shaxs jazodan ozod qilingan bo‘lib, bu ko‘rsatkich mazkur normaning amaliyotda faol qo‘llanilayotganidan dalolat beradi.

Voyaga yetmagan shaxslarning intellektual va jismoniy-ruhiy rivojlanganlik darajasi, jinoyat sodir etilgan paytdagi psixologik holati, hamda ularning resotsiallashtirish imkoniyatlari kattalar bilan qiyoslaganda sezilarli farq qiladi. Bu holat qonunchilikda voyaga yetmaganlarga nisbatan differensiallashgan yondashuv zaruriyatini talab etadi.

Rossiya Federatsiyasi (JK 94-modda), Qozog‘iston Respublikasi (JK 88-modda), Ozarbayjon Respublikasi (JK 91-modda), Gruziya (JK 99-modda) hamda Armaniston Respublikasi (JK 99-modda) jinoyat qonunchiligida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muddatlarini qisqartirish instituti mustahkamlangan. Mazkur xorijiy tajriba O‘zbekiston qonunchiligi uchun muhim qiyosiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 69-moddasiga voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan belgilangan muddatlarning ikki barobarga qisqartirilishini nazarda tutuvchi maxsus normani kiritish maqsadga muvofiq va ilmiy jihatdan asoslidir. Bu taklif quyidagi huquqiy asoslarga tayanadi, birinchidan, voyaga yetmaganlarning resotsiallashtirish darajasi kattalarnikiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi; ikkinchidan, jinoyat qonuni normalarini liberallashtirish tamoyili voyaga yetmaganlar adolatiga xalqaro

standartlar (BMT Pekin qoidalari) bilan uyg'unligi; uchinchidan, mustaqil MDH davlatlari qonunchiligi tajribasining ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlashi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jazodan ozod qilish institutining huquqiy xususiyatlari ularning shaxsiy rivojlanish darajasi va ijtimoiy qayta moslashuv imkoniyatlariga ko'ra farqlanishini talab etadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 69-moddasiga voyaga yetmaganlar uchun muddatlarni ikki barobarga qisqartirish to'g'risida maxsus norma kiritilishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslidir. Mazkur taklif voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi profilaktikasini kuchaytirish hamda ularning jamiyatga tezroq qayta moslashuvini ta'minlash borasida muhim ahamiyat kasb etadi.